



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

2024-yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

# Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **31,5** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **5,9** mingtaga kamaygan yoki **15,9 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 10,0 birlikni tashkil qildi.



## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning yanvar-dekabrida **6,6** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **12,2 %** ga kam demakdir.

**Yuridik shaxs** – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2025-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni (*birlikda*) va ulushi, foizda

**2021-2025-yillar 1-yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda**



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


## Hududlar bo‘yicha 2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

| 2024-yil |                   | 2025-yil |
|----------|-------------------|----------|
| 10 617   | Samarqand sh.     | 9 757    |
| 1 281    | Kattaqo‘rg‘on sh. | 1 060    |
| 1 680    | Oqdaryo           | 1 235    |
| 1 599    | Bulung‘ur         | 1 348    |
| 1 588    | Jomboy            | 1 206    |
| 1 860    | Ishtixon          | 1 278    |
| 1 886    | Kattaqo‘rg‘on t.  | 1 487    |
| 938      | Qo‘srbabot        | 782      |
| 1 264    | Narpay            | 1 027    |
| 1 866    | Payariq           | 1 470    |
| 2 806    | Pastdarg‘om       | 2 323    |
| 1 075    | Paxtachi          | 833      |
| 3 128    | Samarqand t.      | 2 966    |
| 1 187    | Nurobod           | 995      |
| 2 904    | Urgut             | 2 306    |
| 1 719    | Toyloq            | 1 397    |

2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **31 470** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **6 646** tani tashkil etdi.

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Samarqand shahrida **9 757** tani yoki jamiga nisbatan **31,0 %** ni, Samarqand tumanida **2 966** tani yoki jamiga nisbatan **9,4 %** ni, Urgut tumanida **2 306** tani yoki jamiga nisbatan **7,3 %** ni Pastdarg‘om tumanida **2 323** tani yoki jamiga nisbatan **7,4 %** ni tashkil etdi.


## 2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

|                   |      |
|-------------------|------|
| Samarqand sh.     | 16,5 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 11,1 |
| Oqdaryo           | 9,8  |
| Bulung‘ur         | 12,0 |
| Jomboy            | 9,9  |
| Ishtixon          | 8,0  |
| Kattaqo‘rg‘on t.  | 8,5  |
| Qo‘srbabot        | 9,8  |
| Narpay            | 6,5  |
| Payariq           | 10,3 |
| Pastdarg‘om       | 7,4  |
| Paxtachi          | 8,3  |
| Samarqand t.      | 13,0 |
| Nurobod           | 10,6 |
| Urgut             | 6,8  |
| Toyloq            | 9,0  |



Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 2025-yil 1-yanvar holatiga, birlikda



2025-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan **10,0** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan **0,3** birlikka pasaygan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand shahrida **16,5** birlik, Samarqand tumanida **13,0** birlik, Bulung‘ur tumanida **12,0** birlik, Kattaqo‘rg‘on shahrida **11,1** birlik va Nurobod tumanida **10,6** birlikka yetdi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo’shgan holda)


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda


## Eng yuqori ko'rsatkich



## O'rta ko'rsatkich



## Eng past ko'rsatkich



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **16,5** birlik, Samarqand tumanida **13,0** birlik, Bulung'ur tumanida **12,0** birlik, Kattaqo'rg'on shahrida **11,1** birlik, Oqdaryo tumanida **9,8** birlik, Jomboy tumanida **9,9** birlik, Nurobod tumanida **10,6** birlik, Payariq tumanida **10,3** birlik, Qo'shrabot tumanida **9,8** birlik, Toyloq tumanida **9,0** birlik kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

**2025-yil 1-yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda**

### Samarqand shahar

### Bulung'ur tumani

### Nurobod tumani

16,5

13,0

12,0

11,1

10,6

Samarqand tumani

Kattaqo'rg'on shahar

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


**Yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

**2023-yil**

**2024-yil**

|       |                   |       |
|-------|-------------------|-------|
| 1 782 | Samarqand sh.     | 1 742 |
| 262   | Kattaqo‘rg‘on sh. | 196   |
| 382   | Oqdaryo           | 256   |
| 470   | Bulung‘ur         | 348   |
| 307   | Jomboy            | 212   |
| 385   | Ishtixon          | 253   |
| 381   | Kattaqo‘rg‘on t.  | 387   |
| 206   | Qo‘schrabot       | 204   |
| 243   | Narpay            | 227   |
| 418   | Payariq           | 247   |
| 644   | Pastdarg‘om       | 519   |
| 271   | Paxtachi          | 213   |
| 640   | Samarqand t.      | 917   |
| 285   | Nurobod           | 255   |
| 519   | Urgut             | 367   |
| 375   | Toyloq            | 303   |

**2024-yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, foizda**




2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Samarqand shahri **26,2** %, Samarqand tumani **13,8** %, Pastdarg‘om tumani **7,8** %, Kattaqo‘rg‘on tumani **5,8** %, Bulung‘ur tumani **5,2** %, Urgut tumani **5,5** %, Toyloq tumani **4,6** % hissalariga to‘g‘ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024-yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **2 453** ta, sanoatda **1 003** ta hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **672** ta yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda **796** ta tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Samarqand shahrida **1 742** ta, Samarqand tumanida **917** ta, Pastdarg‘om tumanida **519** ta hamda Kattaqo‘rg‘on tumanida **387** ta yangidan tashkil etilgan.


2023-y. 2024-y.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berilayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **44 312** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida **19 567** (yoki **44,2 %**) ta, xizmatlar sohasida **10 926** (yoki **24,7 %**) ta, sanoat sohasida **7 314** (yoki **16,5 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **4 620** (yoki **10,4 %**) ta va qurilish sohasida **1 885** (yoki **4,2 %**) tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, foizda




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagи ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), foizda

2024-yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **72,3 %** ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan. O‘zgarishsiz qolganligining asosiy sababi, kichik tadbirkorlik subyektlarida qo‘shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




## 2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, foizda



2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo‘lovchi aylanmasida **96,5 %** ni, yo‘lovchi tashishda **93,1 %** ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **94,2 %** ni, yuk aylanmasida **84,6 %** ni, qurilishda **83,9 %**, chakana savdoda **88,3 %** ni, tashkil etdi.

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda




*Yuqori ko‘rsatkich*


*Past ko‘rsatkich*

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


**2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mldr so‘m**

|                   |         |
|-------------------|---------|
| Samarqand sh.     | 4 456,1 |
| Urgut             | 3 394,7 |
| Samarqand t.      | 2 014,7 |
| Jomboy            | 1 867,8 |
| Toyloq            | 1 505,2 |
| Bulung‘ur         | 1 054,7 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 1 100,0 |
| Oqdaryo           | 1 071,1 |
| Pastdarg‘om       | 873,7   |
| Payariq           | 793,1   |
| Narpay            | 606,5   |
| Kattaqo‘rg‘on t.  | 606,1   |
| Nurobod           | 507,1   |
| Ishtixon          | 328,5   |
| Qo‘shrabot        | 189,6   |
| Paxtachi          | 153,4   |

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **23 694,7** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (**4 456,1** mldr so‘m), Kattaqo‘rg‘on shahri (**1 100,0** mldr so‘m), Urgut (**3 394,7** mldr so‘m), Jomboy (**1 867,8** mldr so‘m), Samarqand (**2 014,7** mldr so‘m), Toyloq (**1 505,2** mldr so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Paxtachi tumani (**153,4** mldr so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

**2019-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln so‘m**

2024-yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 51,3 % ni tashkil etdi.




**2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, foizda**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oqdaryo (100,0 %), Bulung‘ur (99,6 %), Payariq (98,2 %), Nurobod (92,8 %) va Qo‘shrabot (93,1 %) tumanlari Kattaqo‘rg‘on shahri (98,8 %), Urgut tumani (84,1 %), Samarqand tumani (66,1 %), Pastdarg‘om tumani (60,6 %), Naripay tumani (56,5 %), Toyloq tumani (45,8 %), Jomboy tumani (45,2 %), Ishtixon tumani (36,8%) va Samarqand shahri (25,9 %) ni tashkil etdi.

|                   |       |
|-------------------|-------|
| Oqdaryo           | 100,0 |
| Bulung‘ur         | 99,6  |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 98,8  |
| Payariq           | 98,2  |
| Nurobod           | 92,8  |
| Qo‘shrabot        | 93,1  |
| Urgut             | 84,1  |
| Samarqand t.      | 66,1  |
| Pastdarg‘om       | 60,6  |
| Naripay           | 56,5  |
| Toyloq            | 45,8  |
| Jomboy            | 45,2  |
| Ishtixon          | 36,8  |
| Kattaqo‘rg‘on t.  | 26,9  |
| Samarqand sh.     | 25,9  |
| Paxtachi          | 15,8  |

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

**2019-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi**



## 2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

|                   |                |             |
|-------------------|----------------|-------------|
| Kattaqo'rg'on sh. | <b>278,2</b>   | <b>95,2</b> |
| Kattaqo'rg'on t.  | <b>690,7</b>   | <b>96,8</b> |
| Ishtixon          | <b>221,2</b>   | <b>70,5</b> |
| Jomboy            | <b>338,7</b>   | <b>92,7</b> |
| Narpay            | <b>151,1</b>   | <b>96,4</b> |
| Samarqand sh.     | <b>3 822,6</b> | <b>90,5</b> |
| Paxtachi          | <b>173,2</b>   | <b>94,2</b> |
| Payariq           | <b>1 422,6</b> | <b>95,4</b> |
| Bulung'ur         | <b>250,9</b>   | <b>92,3</b> |
| Urgut             | <b>267,3</b>   | <b>92,6</b> |
| Oqdaryo           | <b>497,9</b>   | <b>88,4</b> |
| Nurobod           | <b>103,4</b>   | <b>69,6</b> |
| Samarqand t.      | <b>258,2</b>   | <b>82,3</b> |
| Qo'shrabot        | <b>162,3</b>   | <b>59,5</b> |
| Pastdarg'om       | <b>478,0</b>   | <b>52,5</b> |
| Toyloq            | <b>595,4</b>   | <b>49,8</b> |


↑ hajmi, mlrd so'mda      ↑ ulushi, % da

2024-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **11 759,1** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **83,9** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **116,7** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (**3 822,6** mldr so'm), Payariq (**1 422,6** mldr so'm), Kattaqo'rg'on (**690,7** mldr so'm), Oqdaryo (**497,9** mldr so'm), Pastdarg'om (**478,0** mldr so'm), Jomboy (**338,7** mldr so'm), Samarqand (**258,2** mldr so'm), Urgut (**267,3** mldr so'm) tumanlarida qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

**2019-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln so‘mda**



2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **15 792,8** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **53,3 %**ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **91,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Samarqand shahri (**1 752,3** mlrd so‘m), Nurobod (**2 990,7** mlrd so‘m), Kattaqo‘rg‘on (**1 332,0** mlrd so‘m), Jomboy (**1 555,3** mlrd so‘m), Samarqand (**1 975,5** mlrd so‘m), Urgut (**957,3** mlrd so‘m), Toyloq (**754,1** mlrd so‘m) va Pastdarg‘om (**859,6** mlrd so‘m), tumanlarida qayd etildi.

**2019-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, foizda**



**2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi**

|                   |                |             |
|-------------------|----------------|-------------|
| Jomboy            | <b>1 555,3</b> | <b>90,6</b> |
| Samarqand t.      | <b>1 975,5</b> | <b>83,8</b> |
| Oqdaryo           | <b>572,5</b>   | <b>90,9</b> |
| Nurobod           | <b>2 990,7</b> | <b>87,5</b> |
| Kattaqo‘rg‘on t.  | <b>1 332,0</b> | <b>86,3</b> |
| Bulung‘ur         | <b>634,3</b>   | <b>82,4</b> |
| Narpay            | <b>566,5</b>   | <b>84,0</b> |
| Urgut             | <b>957,3</b>   | <b>81,1</b> |
| Ishtixon          | <b>403,6</b>   | <b>62,1</b> |
| Paxtachi          | <b>379,3</b>   | <b>55,0</b> |
| Toyloq            | <b>754,1</b>   | <b>74,5</b> |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | <b>366,0</b>   | <b>52,0</b> |
| Pastdarg‘om       | <b>859,6</b>   | <b>46,0</b> |
| Qo‘shrabot        | <b>357,1</b>   | <b>39,0</b> |
| Payariq           | <b>336,6</b>   | <b>21,6</b> |
| Samarqand sh.     | <b>1 752,3</b> | <b>17,6</b> |


hajmi, mlrd so‘mda

ulushi, %da

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtrilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **54 098,7** mldr so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **94,2** % ini tashkil etdi. o‘sish sur’ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **102,7** % ni tashkil qildi.

## 2019-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln so‘mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p yetishtrilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Toyloq (**3 202,9** mldr so‘m), Samarqand (**2 533,9** mldr so‘m), Jomboy (**2 476,1** mldr so‘m), Pastdarg‘om (**4 963,7** mldr so‘m), Payariq (**5 495,4** mldr so‘m), Bulung‘ur (**5 559,3** mldr so‘m), Ishtixon (**5 632,6** mldr so‘m), tumanlarida qayd etildi.


**2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtrilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi**

|                   |                |             |
|-------------------|----------------|-------------|
| Toyloq            | <b>3 202,9</b> | <b>75,8</b> |
| Samarqand t.      | <b>2 533,9</b> | <b>80,6</b> |
| Jomboy            | <b>2 476,1</b> | <b>73,2</b> |
| Samarqand sh.     | <b>252,4</b>   | <b>68,7</b> |
| Oqdaryo           | <b>3 391,8</b> | <b>96,4</b> |
| Ishtixon          | <b>5 632,6</b> | <b>97,9</b> |
| Bulung‘ur         | <b>5 559,3</b> | <b>99,0</b> |
| Kattaqo‘rg‘on t.  | <b>4 879,0</b> | <b>98,9</b> |
| Payariq           | <b>5 495,4</b> | <b>99,0</b> |
| Nurobod           | <b>1 480,1</b> | <b>98,1</b> |
| Narpay            | <b>2 445,2</b> | <b>99,3</b> |
| Pastdarg‘om       | <b>4 963,7</b> | <b>97,9</b> |
| Paxtachi          | <b>2 176,3</b> | <b>95,7</b> |
| Qo‘shrabot        | <b>2 458,0</b> | <b>99,6</b> |
| Urgut             | <b>6 928,7</b> | <b>99,6</b> |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | <b>223,4</b>   | <b>99,9</b> |

hajmi, mldr so‘mda

ulushi, % da

## 2019-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, foizda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2019-2024-yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **31 729,7** mlrd so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **88,3 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **117,6 %** ni tashkil qildi.

## 2024-yil yanvar-dekabrdi oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

|                   |         |      |
|-------------------|---------|------|
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 1 283,4 | 99,9 |
| Narpay            | 1 705,8 | 99,5 |
| Ishtixon          | 1 324,4 | 99,4 |
| Jomboy            | 1 239,1 | 99,3 |
| Oqdaryo           | 794,6   | 99,1 |
| Payariq           | 1 052,2 | 99,1 |
| Qo’shrabot        | 696,1   | 99,1 |
| Paxtachi          | 632,0   | 99,0 |
| Nurobod           | 510,3   | 98,8 |
| Bulung‘ur         | 2 047,9 | 83,8 |
| Urgut             | 3 464,2 | 98,1 |
| Toyloq            | 996,8   | 97,9 |
| Pastdarg‘om       | 1 144,0 | 95,9 |
| Kattaqo‘rg‘on t.  | 1 261,6 | 94,7 |
| Samarqand sh.     | 9 670,7 | 82,1 |
| Samarqand t.      | 2 896,5 | 72,4 |


hajmi, mldr so‘mda  
ulushi, % da



2019-y.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-dekabrida oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd so‘mda


|                   |         |
|-------------------|---------|
| Samarqand sh.     | 8 155,8 |
| Samarqand t.      | 1 879,9 |
| Pastdarg‘om       | 1 719,0 |
| Urgut             | 1 591,7 |
| Toyloq            | 1 251,4 |
| Jomboy            | 1 241,3 |
| Kattaqo‘rg‘on t.  | 1 087,8 |
| Payariq           | 1 030,7 |
| Oqdaryo           | 1 027,3 |
| Ishtixon          | 1 022,5 |
| Narpay            | 961,9   |
| Bulung‘ur         | 746,1   |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 682,1   |
| Qo‘srbabot        | 586,7   |
| Paxtachi          | 577,9   |
| Nurobod           | 548,8   |

2024-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **38 853,7** mlrd so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,0 %** ni tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2023-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **114,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (**8 155,8** mlrd so‘m), Samarqand (**1 879,9** mlrd so‘m), Pastdarg‘om (**1 719,0** mlrd so‘m), Urgut (**1 591,7** mlrd so‘m), Jomboy (**1 241,3** mlrd so‘m), Toyloq (**1 251,4** mlrd so‘m) va Kattaqo‘rg‘on (**1 087,8** mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari




Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida **31,4 %** (**3 854,6** mlrd so‘m), transport xizmatlarida **27,1 %** (**3 202,8** mlrd so‘m), shaxsiy xizmatlarda **12,3 %** (**1 530,4** mlrd so‘m) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **5,6 %** (**573,6** mlrd so‘m)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,4 %** (**59,3** mlrd so‘m) kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati





Ulushi, % da



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, *mln AQSh doll.*

Ulushi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

## 2019-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



## 2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

|                   |             |              |
|-------------------|-------------|--------------|
| Payariq           | <b>13,9</b> | <b>100,0</b> |
| Qo'shrabot        | <b>3,5</b>  | <b>100,0</b> |
| Bulung'ur         | <b>15,2</b> | <b>84,7</b>  |
| Oqdaryo           | <b>29,6</b> | <b>100,0</b> |
| Kattaqo'rg'on sh. | <b>44,5</b> | <b>100,0</b> |
| Kattaqo'rg'on t.  | <b>10,0</b> | <b>78,0</b>  |
| Nurobod           | <b>1,5</b>  | <b>86,2</b>  |
| Urgut             | <b>57,6</b> | <b>84,2</b>  |
| Samarqand t.      | <b>68,7</b> | <b>48,9</b>  |
| Narpay            | <b>16,9</b> | <b>74,7</b>  |
| Ishtixon          | <b>13,2</b> | <b>62,3</b>  |
| Pastdarg'om       | <b>8,6</b>  | <b>71,0</b>  |
| Jomboy            | <b>32,2</b> | <b>34,1</b>  |
| Toyloq            | <b>5,9</b>  | <b>27,0</b>  |
| Samarqand sh.     | <b>40,4</b> | <b>12,6</b>  |
| Paxtachi          | <b>1,5</b>  | <b>10,8</b>  |

hajmi, mln AQSh dollar


ulushi, % da

2024-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **393,2** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **45,1** % ini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Payariq, Qo'shrabot, Oqdaryo, tumanlari **100,0** %, Kattaqo'rg'on shahrida **100,0** %, Kattaqo'rg'on tumanida **78,0** %, Bulung'ur tumanida **84,7** %, Nurobod tumanida **86,2** %, Urgut tumanida **82,1** %, Samarqand tumanida **48,9** %, Narpay tumanida **74,7** % va Ishtixon tumanida **62,3** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Paxtachi tumanida **10,8** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

**2019-2024-yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar  
(ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda**




2024-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **852,6** million AQSh dollarini yoki jami importning **39,6 %** ni tashkil etdi.

## **2024-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagagi ulushi, foizda**


2024-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahri va Qo'shrabot tumanida **100,0 %**, Bulung'ur tumanida **99,9 %**, Payariq tumanida **99,8 %**, Paxtachi tumanida **99,2 %**, Ishtixon tumanida **97,6 %**, Oqdaryo tumanida **94,3 %**, Urgut tumanida **91,5 %**, Narpay tumanida **89,8 %**, Samarqand tumanida **67,7 %**, hamda Kattaqo'rg'on tumanida **67,1 %** ni tashkil etdi.

|                   |       |
|-------------------|-------|
| Kattaqo'rg'on sh. | 99,8  |
| Qo'shrabot        | 100,0 |
| Bo'lung'ur        | 98,9  |
| Payariq           | 99,8  |
| Paxtachi          | 99,1  |
| Ishtixon          | 97,6  |
| Oqdaryo           | 94,4  |
| Urgut             | 92,1  |
| Narpay            | 86,5  |
| Samarqand t.      | 65,7  |
| Kattaqo'rg'on t.  | 66,6  |
| Pastdarg'om       | 61,4  |
| Toyloq            | 45,9  |
| Nurobod           | 72,6  |
| Jomboy            | 45,2  |
| Samarqand sh.     | 21,7  |


# Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




Yuk  
tashishda



Yuk  
aylanmasida



Yo'lovchi  
tashishda



Yo'lovchi  
aylanmasida

2024-yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,7** % ni tashkil etdi.

2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,7** % ni tashkil qildi.


2024-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **84,6** % ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,7** % ni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,1** % ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,1** % ni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,5** % ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,5** % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024-yil IV chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




2024-yil IV chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da 1 848 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 817 (44,2 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 943 (51,0 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 88 (4,8 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda 48,1 % (888 ta), xizmatlar sohasida 28,0 % (517 ta), sanoatda 13,5 % (249 ta), qurilishda 6,3 % (117 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 4,2 % (77 ta)ni tashkil etdi.

**2024-yil IV chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2024-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

|     |                   |      |
|-----|-------------------|------|
| 619 | Samarqand sh.     | 33,5 |
| 68  | Kattaqo'rg'on sh. | 3,7  |
| 65  | Oqdaryo           | 3,5  |
| 86  | Bulung'ur         | 4,7  |
| 79  | Jomboy            | 4,3  |
| 73  | Ishtixon          | 4,0  |
| 75  | Kattaqo'rg'on t.  | 4,1  |
| 38  | Qo'shrabot        | 2,1  |
| 74  | Narpay            | 4,0  |
| 78  | Payariq           | 4,2  |
| 124 | Pastdarg'om       | 6,7  |
| 54  | Paxtachi          | 2,9  |
| 174 | Samarqand t.      | 9,4  |
| 56  | Nurobod           | 3,0  |
| 104 | Urgut             | 5,6  |
| 81  | Toyoq             | 4,4  |


**Soni, birlikda**

**Ulushi, foizda**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (**619** ta), Samarqand (**174** ta), Urgut (**104** ta), Pastdarg'om (**124** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning IV choragida **402** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning IV choragiga kelib esa **817** taga yetgan yoki 2019-yilning IV choragiga nisbatan **415** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilda **617** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-dekabrida **943** ta yoki **326** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **104** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib **88** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan **16** taga pasaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning IV choragida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2019-yilning IV choragida **521** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning IV choragiga kelib esa **888** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **367** taga ko‘paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2019-yilning IV choragida **648** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning IV choragida **686** ta yoki **38** taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019-yilning IV choragida **73** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning IV choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **125** tani tashkil etib, **52** taga oshgan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), foizda**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning IV choragida **37,4 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **52,3 %** ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **14,9 %** birlikka oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilda **54,3 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning IV choragida **40,4 %** yoki **13,8 %** birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **8,3 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, bu ko'rsatkich **7,4 %** ga yetgan yoki **0,9 %** ga kamaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2019-2024-yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), foizda**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning IV choragida **52,8 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib esa **33,7 %** ga yetgan yoki 2019-yilning IV choragiga nisbatan **19,1 %** birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2019-yilning IV choragida **41,4 %** bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning yanvar-dekabrida **61,4 %** yoki **20,0 %** birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019-yilning IV choragida **5,8 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning IV choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **4,9 %** yoki **0,9 %** birlikka oshgan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024-yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **48,1** % ni, savdoda **45,4** % ni, qurilishda **45,3** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda **53,4** % ni, xizmatlar sohasida **51,6** % ni, savdoda **50,7** % ni, qurilishda **49,6** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda **6,8** %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,5** % ni, qurilishda **5,1** % ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda **60,5 %** ni, qurilishda **59,8 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **57,1 %** ni va xizmatlar sohasida **56,1 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi, sanoatda **43,0 %** ni, xizmatlar sohasida **40,4 %** ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **39,0 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p qurilishda **4,3 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **3,9 %** ni hamda xizmatlar sohasida **3,5 %** ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, foizda

|   | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan<br>joriy davrdagi o‘zgarishlar |              |                             |
|---|--|--------------|-----------------------------|
|   | Ko‘payish<br>(yaxshilanish*)                                       | o‘zgarishsiz | Kamayish<br>(yomonlashish*) |
| <b>Korxonaning umumiyligi<br/>aylanmasi</b> | 52,2   | 40,4         | 7,4                         |

|   |      |      |     |
|---|------|------|-----|
| <b>Band bo‘lganlar soni</b>   | 33,7 | 61,4 | 4,9 |
| <b>Sotilgan mahsulot (tovarlar,<br/>ishlar va xizmatlar) uchun<br/>narx</b> | 44,1 | 52,2 | 3,7 |
| <b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z,<br/>kredit va qarz mablag‘lari</b>            | 35,4 | 60,9 | 3,7 |
| <b>Raqobat muhiti</b>   | 49,3 | 48,9 | 1,8 |


|   | Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli |              |                             |
|---|-------------------------------------|--------------|-----------------------------|
|   | Ko‘payish<br>(yaxshilanish*)        | o‘zgarishsiz | kamayish<br>(yomonlashish*) |
| <b>Korxonaning umumiyligi<br/>aylanmasi</b> | 55,1                                | 41,9         | 3,0                         |

|   |      |      |     |
|---|------|------|-----|
| <b>Band bo‘lganlar soni</b>   | 35,7 | 62,2 | 2,1 |
| <b>Sotilgan mahsulot (tovarlar,<br/>ishlar va xizmatlar) uchun<br/>narx</b> | 42,4 | 55,1 | 2,5 |
| <b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z,<br/>kredit va qarz mablag‘lari</b>            | 37,8 | 59,8 | 2,4 |
| <b>Raqobat muhiti</b>   | 49,5 | 48,8 | 1,7 |

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli


# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash,  
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, foizda**



■ ko‘payish (yaxshilanish\*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish\*)

**2024-yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin  
3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, foizda**



■ ko‘payish (yaxshilanish\*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish\*)

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli